



## THE FORMATION OF THEOLINGUISTIC THINKING IN MODERN SOCIETY AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

**Zulhumor Sidamatovna Nurullaeva**

*Doctor of Philosophy (PhD)*

*Associate Professor of the Department of "Social and Humanitarian Sciences" of the Tashkent branch of the University of Business and Science*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** theolinguistics, religious discourse, social consciousness, spirituality, communication, philosophy of language.

**Received:** 08.10.25

**Accepted:** 09.10.25

**Published:** 10.10.25

**Abstract:** This article analyzes the process of formation of theolinguistic thinking in modern society and its social significance. The study highlights the interrelationship between language and religion, the role of religious discourse in the formation of social consciousness, and the role of the theolinguistic approach in the system of spiritual communication. The author analyzes the phenomenon of theolinguistics in the context of sociocultural changes, spirituality, and global communication, substantiating its significance as a stabilizing factor of human thinking in modern civilization. The article provides an integrated analysis of religious language, communication culture, and moral values based on hermeneutic, sociolinguistic, and socio-philosophical methods. As a result, theolinguistic thinking is interpreted as a conceptual approach that ensures spiritual harmony and social stability in society.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA TEOLINGVISTIK TAFAKKURNING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

**Zulhumor Sidamatovna Nurullayeva**

*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*University of Business and Science Toshkent filiali*

*"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b.,*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** teolingvistika, diniy diskurs, ijtimoiy ong, maʼnaviyat, kommunikatsiya, til falsafasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda teolingvistik tafakkurning shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va din oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, diniy diskursning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli hamda teolingvistik yondashuvning maʼnaviy kommunikatsiya tizimidagi oʻrni yoritiladi. Muallif teolingvistika fenomenini ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar, maʼnaviyat va global kommunikatsiya kontekstida tahlil qilib, uning zamonaviy sivilizatsiyada inson tafakkurini barqarorlashtiruvchi omil sifatidagi ahamiyatini asoslaydi. Maqolada germenevtik, sotsiolingvistik va ijtimoiy-falsafiy metodlar asosida diniy til, muloqot madaniyati va axloqiy qadriyatlarning integratsion tahlili olib borilgan. Natijada, teolingvistik tafakkur jamiyatda maʼnaviy uygʻunlik va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlovchi konseptual yondashuv sifatida talqin etiladi.

## ФОРМИРОВАНИЕ ТЕОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ И ЕГО СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

**Зульхумор Сидаматовна Нуруллаева**

доктор философии (PhD)

и.о. доцента кафедры “Социально-гуманитарные науки”

Ташкентского филиала University of Business and Science

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** теоллингвистика, религиозный дискурс, общественное сознание, духовность, коммуникация, философия языка.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования теоллингвистического мышления в современном обществе и его социальное значение. В исследовании освещается взаимосвязь языка и религии, роль религиозного дискурса в формировании общественного сознания и роль теоллингвистического подхода в системе духовной коммуникации. Автор анализирует феномен теоллингвистики в контексте социокультурных изменений, духовности и глобальной коммуникации и обосновывает его значение как фактора, стабилизирующего человеческое мышление в современной цивилизации. В статье проведен интеграционный анализ религиозного языка, культуры общения и

нравственных ценностей на основе герменевтических, социолингвистических и социально-философских методов. В результате теолингвистическое мышление интерпретируется как концептуальный подход, обеспечивающий духовную гармонию и социальную стабильность в обществе.

---

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniy xilmaxillik jarayonlari inson tafakkuri hamda ijtimoiy ongda chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu jarayonda til nafaqat aloqa vositasi, balki ma'naviy mazmunni shakllantiruvchi va jamiyat ongini yo'naltiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Aynan shu nuqtada teolingvistika – ya'ni til va diniy tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganuvchi ilmiy yo'nalish – zamonaviy falsafaning muhim tahliliy sohasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Teolingvistik tafakkur diniy diskurs, e'tiqodiy ramzlar va axloqiy muloqotning tildagi ifodasi orqali insonning ma'naviy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiradi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan teolingvistik tafakkurning o'rganilishi diniy tilning ijtimoiy ongda, ma'naviy qadriyatlardagi hamda axloqiy munosabatlardagi rolini chuqur anglash imkonini beradi. Chunki zamonaviy jamiyatda til orqali diniy qadriyatlarning tarqalishi, ularning global kommunikatsiya tarmoqlarida yangi shakllarda namoyon bo'lishi inson tafakkurining yangi semantik va ma'naviy ufqlarini ochish imkonini berdi. Shuningdek, diniy muloqotning til madaniyatiga, insonlararo bag'rikenglik va o'zaro tushunishga ta'siri kuchayib bormoqda. Teolingvistik tafakkurning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar, kommunikativ tizimlar va ma'naviy qadriyatlar o'zaro ta'siri doirasiga ega. Shu orqali teolingvistika zamonaviy falsafada inson, til va din birligining konseptual modelini shakllantiruvchi nazariy yondashuv sifatida talqin etiladi.

**Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, teolingvistik tafakkur masalasi til falsafasi, diniy kommunikatsiya va ijtimoiy ong o'rganilayotgan zamonaviy yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqdir. M.Bakhtin, P.Riker, E.Fromm, A.Losev kabi olimlar tilda diniy mazmun va ma'naviy ramzlarning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi rolini falsafiy asosda izohlashgan. H.Habermas esa kommunikativ aql konsepsiyasi orqali diniy muloqotning ijtimoiy integratsiyadagi ahamiyatini yoritgan. Mahalliy tadqiqotlarda til, ma'naviyat va diniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik ijtimoiy barqarorlik omili sifatida talqin etiladi. Ushbu manbalar tahlili teolingvistika zamonaviy jamiyatda ma'naviy-axloqiy birlikni shakllantiruvchi falsafiy-nazariy paradigma sifatida rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy ilm-fan va falsafiy tafakkur soʻnggi asrlarda inson ongining til bilan, tilning esa eʼtiqodiy, madaniy hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqadorligini chuqur tahlil etishga yoʻnaltirilgan. Bu yoʻnalishda teolingvistika, til falsafasi va diniy diskurs tushunchalari oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, ular jamiyatdagi maʼnaviy qadriyatlar tizimining shakllanishi, ijtimoiy ongning rivojlanishi va madaniy kommunikatsiyaning mazmunini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Teolingvistika termini yunoncha theos (Xudo) va lotincha lingua (til) soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, u til orqali diniy ong, eʼtiqodiy qarash va ilohiy gʻoyaning inson tafakkurida qanday shakllanishini oʻrganadi. Bu yoʻnalish XX asrning ikkinchi yarmida din falsafasi, sotsiologiya va lingvistikaning kesishgan nuqtasida vujudga keldi. Teolingvistik tadqiqotlarda asosiy eʼtibor diniy matnlarning lingvistik tuzilishiga, muqaddas soʻzning semantik qatlamlariga, diniy nutqdagi ramz va majozlarning maʼnosiga qaratiladi.

**Tahlil va natijalar.** Nemis faylasufi Ludvig Vittegenstein til va tafakkurning birligi haqida shunday degan edi: “Mening dunyo chegaram – bu mening tilim chegarasidir” [1]. Bu fikr diniy kontekstda shuni anglatadiki, insonning ilohiy haqiqatni idrok etish qobiliyati ham tildagi ifoda chegarasi bilan belgilanadi. Teolingvistik yondashuvda esa bu gʻoya diniy tilda Xudoning “soʻzi” orqali insonning maʼnaviy tajribasi shakllanishini koʻrsatadi. Demak, til nafaqat diniy gʻoyani yetkazuvchi vosita, balki u eʼtiqodning oʻzi, maʼnaviy tafakkurning ifoda shaklidir. Teolingvistika shuningdek diniy tafakkurning tarixiy va madaniy dinamikasini oʻrganadi. Har bir din oʻziga xos lingvistik kod, semantik tuzilma va ijtimoiy kommunikatsiya modeli orqali yashaydi. Qurʼon, Injil, Tavrot yoki boshqa muqaddas matnlarning tili – bu nafaqat diniy axborot, balki maʼnaviy semiosfera, yaʼni inson ruhiyatini shakllantiruvchi maʼno makonidir.

Til falsafasi – insonning borliqni idrok etish va ifoda qilish jarayonida tildan foydalanish qonuniyatlarini oʻrganadi. Til falsafasining klassik namoyandalari, xususan, Gegel, Gumboldt, Heidegger kabi mutafakkirlar tilni “borliqning uyi”, insonning mavjudlikni anglash shakli sifatida talqin qilganlar. Martin Heideggerning “Til – bu mavjudlikning uyi” [2] degan mashhur fikri teolingvistikadagi mavjudlik tajribasini chuqur anglash uchun muhim falsafiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Til falsafasi nuqtai nazaridan diniy nutq – bu insonning oliy haqiqatidir. Shuning uchun diniy til faqat tavsiflovchi emas, balki mavjudlikni yaratib beruvchi funksiyani ham bajaradi. Til orqali inson nafaqat eʼtiqodini bildiradi, balki uni ongida va ijtimoiy muhitda real kuchga aylantiradi. Shu maʼnoda, teolingvistik yondashuv til falsafasini diniy semantika, axloqiy muloqot va maʼnaviy tajriba bilan birlashtiradi. Til falsafasi diniy nutqni metaforik, ramziy va rituellik jihatdan ham tahlil qiladi. Diniy matnlardagi har bir soʻz, ibora yoki ramz inson tafakkurida maʼnaviy obrazni shakllantiradi. Shu tariqa, teolingvistik tahlil tilning inson ruhiyatiga, axloqiy pozitsiyasiga va ijtimoiy ongga taʼsirini ochib beradi.

Diniy diskurs – bu diniy mazmunga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatning ijtimoiy shaklidir. U o‘z ichiga diniy matnlarni, va‘zlarni, duolarni, diniy risolalar va ommaviy muloqotni oladi. Diskurs tahlili yondashuvida (M.Fuko, N. Ferclo, Tyon van Deyk) diniy nutq ijtimoiy hokimiyat, axloqiy tartib va ma‘naviy me‘yorlarning shakllanishida markaziy o‘rinni egallaydi. “Teolingvistik tafakkur nuqtai nazaridan diniy diskurs faqat ilohiy so‘zning tili emas, balki insonlar orasidagi ma‘naviy muloqotning normativ tizimidir”[3]. Diniy diskurs jamiyatda ma‘naviy birdamlikni, bag‘rikenglikni va axloqiy me‘yorlarni mustahkamlaydi. U orqali diniy qadriyatlar til orqali jamiyat ongiga singdiriladi, tildagi ma‘naviy ma‘no esa ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchga aylanadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli davrda diniy diskurs yangi kommunikatsion shakllarga ega bo‘lmoqda: internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali diniy tildagi xabarlar keng auditoriyaga yetmoqda. Bu esa teolingvistik tafakkurning yangi bosqichini, ya‘ni raqamli teolingvistikani yuzaga keltirmoqda. Endilikda diniy nutq virtual muloqotda, vizual semiotika va media-ramzlar orqali yangi semantik makon hosil qilmoqda.

Ijtimoiy ong – jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi, e‘tiqodi va qadriyatlarini birlashtiruvchi ma‘naviy-axloqiy tizimdir. Til esa bu ongning tashqi ifodasi sifatida xizmat qiladi. Teolingvistik tafakkurda diniy tildagi ma‘nolar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy semantik qatlamlardan biridir. Chunki diniy til orqali inson jamiyatdagi axloqiy me‘yorlarni o‘zlashtiradi, yaxshilik va yomonlik, halollik va adolat kabi tushunchalarning mohiyatini anglaydi. Ijtimoiy falsafa teolingvistik tafakkurni insonning ijtimoiy mavjudlikdagi ma‘naviy yo‘nalishini aniqlovchi fenomen sifatida talqin etadi. Bu jarayonda diniy til nafaqat e‘tiqodni, balki ijtimoiy birdamlikni ham ta‘minlaydi. Masalan, o‘zbek madaniyatida “bismilloh”, “shukr”, “duo”, “savob”, “gunoh” kabi diniy so‘zlar ijtimoiy muloqotda axloqiy semantika vazifasini bajaradi.

Teolingvistika, til falsafasi, diniy diskurs va ijtimoiy ong o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik zamonaviy falsafaning muhim ilmiy yo‘nalishini tashkil etadi. Teolingvistik tafakkur inson tafakkurining til orqali ilohiy ma‘nolar bilan to‘qnashuvini, diniy diskurs esa bu ma‘nolarning jamiyatdagi ijtimoiy ongga singish jarayonini ifodalaydi. Shu sababli, zamonaviy falsafiy yondashuvlarda teolingvistik tadqiqotlar insonning ma‘naviy mavjudligi, ijtimoiy birdamlik va madaniy ongni shakllantirishdagi asosiy konseptual model sifatida e‘tirof etilmoqda.

Teolingvistika – bu nisbatan yangi, interdisiplinar (fanlararo) ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u til, din va ijtimoiy tafakkur o‘rtasidagi murakkab aloqadorlikni o‘rganadi. Mazkur yo‘nalishning shakllanishi din falsafasi, semiotika, tilshunoslik, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning kesishgan nuqtasida yuzaga kelgan. Shunga qaramay, zamonaviy ilmiy manbalarda teolingvistika alohida tizim sifatida hali to‘liq shakllanmagan, uni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlar kam. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning bo‘shlig‘i va ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Birinchidan, teolingvistik tadqiqotlarda asosan diniy matnlarning lingvistik tahliliga e'tibor qaratiladi, ammo bu tahlilning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ya'ni diniy tilning jamiyat ongini shakllantirishdagi roli yetarlicha yoritilmagan. Masalan, Qur'on, Injil, Tavrot yoki boshqa muqaddas matnlarning tili nafaqat ilohiy mazmun tashuvchi vosita, balki ijtimoiy ongni, axloqiy qadriyatlarni va jamiyatdagi muloqot madaniyatini shakllantiruvchi kuch sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Bu jihat ko'p hollarda lingvistik yoki teologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi, biroq falsafiy talqin, xususan, ijtimoiy falsafa yondashuvida u yetarli darajada o'rganilmagan.

Ikkinchidan, teolingvistik tadqiqotlarda tilning diniy semantika orqali ijtimoiy ongni shakllantirishdagi mexanizmlariga nisbatan tizimli model ishlab chiqilmagan. Yevropa ilmiy maktablarida (Xaydegger, Gadamer va Riker ishlarida) [4] diniy tilning ontologik va fenomenologik talqinlari mavjud, ammo bu yondashuvlar Sharq, xususan, O'zbekiston kabi ma'naviy an'analarga boy jamiyatlar kontekstida hali keng qo'llanmagan. Shu boisdan, teolingvistika ijtimoiy muhitda til, e'tiqod va ma'naviyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlovchi yangi falsafiy konsept sifatida ishlab chiqilishi zarur.

Uchinchidan, raqamli kommunikatsiya davrida diniy diskurs shakllari tubdan o'zgarmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt asosidagi kommunikatsion tizimlar diniy mazmunni yangi semiotik shakllarda ifodalayapti. Bu esa "raqamli teolingvistika" [5] degan yangi yo'nalishning zarurligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, diniy tildagi so'z, ramz va metaforalar endi virtual makonda ham ijtimoiy ongni shakllantirish qudratiga ega bo'lib bormoqda. Mazkur holatni falsafiy, lingvistik va sotsiokognitiv tahlil asosida o'rganish – teolingvistik tadqiqotlarning dolzarb ilmiy yangiligi sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, mavjud ilmiy adabiyotlarda teolingvistik tafakkurning ma'naviy antropologik o'lchovi, ya'ni insonning tildagi diniy ifoda orqali o'z "men"ini, ruhiy dunyosini va axloqiy yo'nalishini anglash masalasi hamon chuqur tadqiq etilmagan. Bu holat ijtimoiy falsafa uchun nihoyatda muhim, chunki diniy til – insonning mavjudlikni ma'nolantirishdagi vositasi, ma'naviy o'zlikni anglash jarayonining markazidir.

Beshinchidan, O'zbekiston va Markaziy Osiyo ilmiy makonida teolingvistik masalalar ko'proq diniy terminologiya, tarjima masalalari yoki diniy kommunikatsiya doirasida tahlil qilinadi. Ammo bu yo'nalishda falsafiy-metodologik asos hali to'liq ishlab chiqilmagan. "Til va din o'rtasidagi falsafiy uyg'unlik", "diniy tilning ijtimoiy semantikasi", "muqaddas so'zning ijtimoiy ongdagi funksiyasi" kabi konseptual tushunchalar tizimlashtirilmagan. Teolingvistik tadqiqotlarning hozirgi bosqichida mavjud bo'shliq – bu til, din va ijtimoiy ongning o'zaro munosabatini birlashtiruvchi yagona falsafiy modelning yo'qligidir. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar esa nafaqat din falsafasi, balki jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlar evolyutsiyasini chuqur tahlil etish uchun ham ilmiy asos yaratadi.

Teolingvistika – bu til, tafakkur va din o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganadigan yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u diniy matnlar va diskurslar orqali insonning ijtimoiy ongidagi ma‘naviy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. Teolingvistik tafakkur, o‘z navbatida, tilning diniy mazmunga ega bo‘lgan shakllari orqali ijtimoiy ongda vujudga keluvchi ma‘naviy va kognitiv strukturalarni anglashni maqsad qiladi. Shu nuqtai nazardan, teolingvistik tafakkurni ijtimoiy ong tizimida o‘rganish bir qator ilmiy tamoyillarga asoslanadi.

Til – bu inson tafakkurining tashqi shakli, tafakkur esa tilning ichki mohiyatidir. Teolingvistik yondashuv bu ikki jarayonning ajralmasligini ta‘kidlaydi. «Til orqali diniy tushunchalar, ilohiy g‘oyalar va axloqiy qadriyatlar ifodalanadi, tafakkur esa ularni idrok etish, tahlil qilish va jamiyat ongiga singdirish vositasiga aylanadi»[6]. Shu bois, teolingvistik tafakkur ijtimoiy ongda tildagi diniy birliklarning (so‘z, metafora, termin, ibora) semantik qatlamini tahlil qilish orqali ijtimoiy-ma‘naviy ongning ichki manzarasini ochib beradi. Bu tamoyilga ko‘ra, har bir diniy nutq yoki diskurs ijtimoiy ongning bir shakli sifatida qaraladi va u o‘zining semantik tizimi orqali jamiyatning ma‘naviy qiyofasini shakllantiradi.

Teolingvistik tafakkurni ijtimoiy ongda o‘rganishda har bir diniy nutq yoki matnni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilish zarur. “Diniy diskurs faqat so‘zlar yig‘indisi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy amaliyot, urf-odat, tarixiy xotira va madaniy meros bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tildagi hodisadir” [7]. Masalan, diniy matnlar, oyatlarining yoki hadislarining turli davr va madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi – teolingvistik tafakkurning ijtimoiy kontekstga bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bois, bu tamoyil til va ijtimoiy ong o‘rtasidagi dialektik aloqani chuqur tahlil etish imkonini beradi.

Teolingvistik tadqiqotlarda diniy tilning semantik (ma‘no) va pragmatik (foydalanishdagi maqsad) jihatlarini birgalikda o‘rganish zarur. Diniy nutqning ijtimoiy ongdagi o‘rni uning mazmuniy qatlamlaridagina emas, balki bu nutq qanday sharoitda, kim tomonidan va qanday maqsadda ishlatilayotganida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, diniy ulamoning nutqida ishlatilgan metaforalar, oyat yoki hadislar bilan ifodalangan iboralar nafaqat diniy ma‘no, balki ijtimoiy ruhiy kayfiyatni ham shakllantiradi. Bu tamoyil teolingvistik tafakkur orqali jamiyatda shakllanayotgan axloqiy, siyosiy yoki ma‘naviy kayfiyatlarning lingvistik ildizlarini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy ong murakkab tizim bo‘lib, u diniy, falsafiy, siyosiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan o‘zaro ta’sirda rivojlanadi. Teolingvistik tafakkur bu tizimning bir komponenti sifatida, boshqa ong shakllari bilan uzluksiz aloqada bo‘ladi. Sinergetik yondashuv teolingvistik tizimni o‘z-o‘zini tashkil etuvchi va dinamik rivojlanadigan tizim sifatida talqin etadi. Bu tamoyil orqali diniy til va ijtimoiy ong o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlari, diniy diskursning siyosiy ongga, milliy identitetga yoki ijtimoiy birdamlikka ta’siri – tizimli tahlil qilinadi.

Teolingvistik tafakkurda germenektika – ya’ni talqin san’ati muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy matnlarning ma’nosi bir ma’no bilan cheklanmaydi, balki u talqin orqali qayta “tiriltiriladi”. Shuning uchun teolingvistik yondashuvda ijtimoiy ong tizimida mavjud diniy nutq shakllarini talqin etish, ularning zamonaviy ijtimoiy kontekstdagi ma’nolarini anglash muhimdir. Germenektik tamoyil bu ma’nolarni aniqlash orqali jamiyatdagi ma’naviy tafakkur darajasini o’lchash imkonini beradi.

Dialogik tafakkur tamoyili, teolingvistik tafakkurni o’rganishda dialogik yondashuv muhim metodologik vosita hisoblanadi. Bu tamoyil M.Bextinning “dialogizm g’oyalari”ga asoslanib, har bir diniy til hodisasi ijtimoiy muloqotning bir shakli sifatida tahlil qilinadi. Diniy nutq har doim “boshqa” bilan muloqotda bo’ladi – ya’ni, u ijtimoiy fikr, mafkura, falsafiy tafakkur yoki dunyoviy diskurslar bilan o’zaro ta’sirda shakllanadi”[8]. Dialogik tamoyil teolingvistik tafakkurni dinlararo muloqot, diniy bag’rikenglik va ijtimoiy totuvlik kontekstida tadqiq etish uchun ilmiy asos yaratadi.

Ma’naviy-madaniy determinantlik tamoyili, har bir til tizimi ma’lum bir madaniy va diniy an’analariga tayangan holda rivojlanadi. Shu bois teolingvistik tafakkur ham madaniyatning asosiy ma’naviy determinantlarini – qadriyatlar, urf-odatlar, diniy ramzlar, marosimlar va tildagi axloqiy tushunchalarni tahlil qilish orqali ochiladi. Masalan, o’zbek tilida “xayrli ish”, “nasib etsa” kabi teolingvistik birliklar jamiyat ongidagi diniy-madaniy kodlarning ifodasidir. Ushbu tamoyil orqali diniy tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki milliy ma’naviyatni ifodalovchi kod sifatida o’rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Kognitiv-falsafiy izchillik tamoyili, teolingvistik tafakkur tahlilida inson ongidagi diniy konseptlarning shakllanish jarayoni ham alohida e’tiborni talab etadi. Kognitiv yondashuvga ko’ra, inson diniy tushunchalarni tildagi belgilar orqali ongida modellashtiradi. Bu jarayon falsafiy kategoriyalar – “haqiqat”, “ezgulik”, “adolat”, “vijdon” kabi tushunchalar bilan bog’lanadi. Shu bois teolingvistik tafakkurni o’rganishda falsafiy kategoriya va lingvistik konseptlar o’zaro uzviy tahlil qilinadi.

Teolingvistik tafakkurni ijtimoiy ong tizimida o’rganish – bu til, din va tafakkur o’rtasidagi dialektik aloqani tahlil qilishning integrativ modeli hisoblanadi. U ijtimoiy ongning ma’naviy kodlarini ochishga, diniy diskurslarning ijtimoiy funksiyalarini aniqlashga hamda diniy tildagi ma’nolar orqali jamiyatning axloqiy va ideologik yo’nalishlarini tahlil qilishga imkon beradi. Mazkur tamoyillarni uyg’unlashtirgan holda olib boriladigan teolingvistik tadqiqotlar zamonaviy jamiyatda diniy ong va ma’naviyat evolyutsiyasini ilmiy asosda yoritishning metodologik poydevorini yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Birinchidan, zamonaviy jamiyatda teolingvistik tafakkur – diniy ma’no va tilning o’zaro uyg’unligi orqali inson ongini shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir. U tilda aks

etgan diniy qadriyatlar, ramzlar va semantik qatlamlar orqali shaxs dunyoqarashiga, ijtimoiy muloqot va madaniy identifikatsiyaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu tafakkur shakli diniy tilning falsafiy, axloqiy va kommunikativ funksiyalarini birlashtiradi.

Ikkinchidan, teolingvistik tafakkur ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyatda ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Diniy tildagi ramziy ma'no, duolar, hadislar va matnlar orqali axloqiy normalar ijtimoiy amaliyotga singdiriladi. Natijada til orqali shakllangan diniy tafakkur insonlar o'rtasidagi ishonch, bag'rikenglik va ma'naviy birdamlikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, axborot texnologiyalari davrida teolingvistik tafakkur yangi kommunikativ maydonga – virtual makonga ko'chdi. Ijtimoiy tarmoqlar, diniy bloglar va raqamli media orqali diniy g'oyalar tez tarqalmoqda. Bu holat diniy nutqning yangi shakllarini, raqamli va teolingvistik identifikatsiyani yuzaga keltirmoqda hamda diniy kommunikatsiyani global jarayonga aylantirmoqda.

To'rtinchidan, teolingvistik tafakkur jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning samaradorligini oshiradi. Diniy tildan oqilona foydalanish yoshlar dunyoqarashida axloqiy mezonlarni shakllantirishga, milliy o'zlikni saqlashga va ekstremistik talqinlarga qarshi immunitetni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois teolingvistika zamonaviy ta'lim va ijtimoiy muloqotning ma'naviy asosi sifatida muhimdir.

Beshinchidan, teolingvistik tafakkur kelajakda insoniyatning global madaniy integratsiyasi jarayonida muhim falsafiy yo'nalishga aylanishi kutilmoqda. U din, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish, diniy kommunikatsiyaning insonparvarlik va muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi rolini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, teolingvistik tafakkur ma'naviy uyg'unlikning konseptual modeli sifatida shakllanmoqda.

Zamonaviy jamiyatda teolingvistik tafakkurning shakllanishi va uning ijtimoiy ahamiyati o'rganish yuzasidan quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz:

1. Ta'lim tizimida teolingvistik tafakkurni o'rganish modullarini joriy etish. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Til va din falsafasi", "Teolingvistika asoslari" kabi fanlarni kiritish lozim. Bu yo'nalish diniy tildagi semantik strukturalarni, ularning ijtimoiy ongga ta'sirini o'rgatish orqali yoshlarning tafakkurini tanqidiy va ma'naviy jihatdan boyitadi.

2. Media va blogosferada teolingvistik madaniyatni rivojlantirish. Internetdagi diniy kontent yaratishda til me'yorlari, diniy etika va muloqot madaniyatiga amal qilish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarur. Bu teolingvistik madaniyatni raqamli axborot makonida sog'lomlashtirish va ekstremistik tildan himoya qilishga xizmat qiladi.

3. Teolingvistik tadqiqot markazlarini tashkil etish. Universitetlar yoki ilmiy muassasalar huzurida "Teolingvistik tadqiqot markazlari"ni tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu markazlar din,

til va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni ilmiy asosda tahlil qiladi hamda ijtimoiy kommunikatsiya siyosatini takomillashtirishga ilmiy tavsiyalar beradi.

4. Diniy so'zlashuv madaniyati bo'yicha trening va seminarlar o'tkazish. Imom-xatiblar, bloggerlar va jurnalistlar uchun diniy so'zlashuv, semantik ehtiyotkorlik, muloqot etikasi va tolerant til masalalariga bag'ishlangan treninglar tashkil etish zarur. Bu jamiyatda teolingvistik savodxonlikni oshiradi.

5. Teolingvistik jarayonlarni monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy til va diskurslardan foydalanish holatini tahlil qiluvchi maxsus monitoring tizimini yaratish kerak. Bu tizim virtual muhitda diniy so'zlashuvdagi tendensiyalarni aniqlab, ma'naviy xavfsizlik va sog'lom muloqotni ta'minlashda amaliy yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат / Пер. с нем. Добронравова и Д. Лахути; общ. ред. и предисл. В.Ф.Асмуса. – М.: «Наука», 2009. – С.133.
2. Мартин Хайдеггер. Что зовется мышлением? / Пер. Э.Сагетдинова. – М.: «Территория будущего», 2006. – С.13.
3. Тён ван Дейк. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации. / Пер. с англ. Кожемякин Е.А., Переверзев Е.В., Аматов А.М. – М.: «ЛИБРОКОМ», 2013. – С.83.
4. Хайдеггер М. Феноменология и трансцендентальная философия ценности. – Киев «Cartel», 1996. – С.116.
5. Постовалова В.И. Теоллингвистика в современном гуманитарном познании: истоки, основные идеи и направления // Научно-педагогический журнал Восточной Сибири Magister Dixit. 2012. –№ 4. –С. 56-58.
6. Мечковская Н.Б. Язык и религия. Лекции по филологии и истории религий. – М.: «ФАИР», 1998. –С.35.
7. Xolmuhamedov N. Din va jamiyat: tarix va bugun. – Samarqand.: "Siyosat", 2020. – B.6.
8. Бахтин М.М. К философским основам гуманитарных наук. // Бахтин М.М. Автор и герой: К философским основам гуманитарных наук. СПб., 2000.
9. Абсатторов, Б. М. (2022). Тасаввуф–ўз-ўзини такомиллаштириш ва ҳақиқатни билиш йўли сифатида. Gospodarka i Innowacje, 30, 167-173.
10. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.

11. Mamarasulovich, Absattorov B., and Tashmurodov M. I. O'G'Li. "Genetic Markers and Evolutionary Manifestations of the "Nafs" Concept." World Bulletin of Social Sciences, vol. 29, 6 Dec. 2023, pp. 16-19.

12. Mamarasulovich, A. B. (2022). Religious and Philosophical Aspects of Human Moral Development. Conferencea, 197-201.